## SIRDARYO VILOYATINING
## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

*(2019 yil yanvar-iyun oylari)*

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1462,7 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,8 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 168,2 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,2 b.%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1294,5 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 119,0 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)**




Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (598,8 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (233,5 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (129,9 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (126,1 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari,** *(%)*




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 b.% ga ko'paydi va 168,2 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,5 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 1294,5 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,0 % ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,5 % ga teng kelmoqda.

## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, *(%)*




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi 2015 yil yanvar-iyun oylari 87,3 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 88.5 % ni tashkil qildi.

## Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, *(%)*



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Xovos t (99,4 %), Shirin sh (99,2 %), va Boyovut (98,2%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (22,6 %), Yangiyer shahri (6,7 %) va Sayxunobod tumani (4,7 %) kuzatildi.

## Chakana savdo aylanmasi va kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasidagi hajmi

| | **Chakana savdo aylanmasi** (mlrd.so`m) | **O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da** | **Kichik tadbirkorlik** (mlrd.so`m) | **O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da** |
|---|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | 1462,7 | 108,8 | 1294,5 | 102,0 |
| Guliston sh. | 598,8 | 118,1 | 463,3 | 106,2 |
| Shirin sh | 20,3 | 101,2 | 20,1 | 105,7 |
| Yangiyer sh | 129,9 | 103,7 | 121,2 | 104,2 |
| tumanlar: | | | | |
| Boyovut | 71,5 | 100,1 | 70,3 | 104,4 |
| Guliston | 53,5 | 104,5 | 51,8 | 106,0 |
| Mirzaobod | 126,1 | 104,7 | 121,3 | 104,4 |
| Oqoltin | 70,6 | 102,9 | 68,9 | 103,9 |
| Sardoba | 60,2 | 104,0 | 58,6 | 104,9 |
| Sayxunobod | 46,2 | 101,9 | 44,0 | 105,7 |
| Sirdaryo | 233,5 | 103,2 | 223,2 | 104,9 |
| Xovos | 52,1 | 101,2 | 51,8 | 104,8 |

**Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-iyun oylari** *(%)*




2019 yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1755,1 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga ko’paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyun oylarida o`tgan yilga nisbatan o’rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko’rsatkichlari Guliston shahri (6698,9 ming so’m), Yangiyer shahri (3042,2 ming so’m) va Sirdaryo tumanida (1848,4 ming so’m) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Boyovut tumani (560,2 ming.so`m), Xovos tumanida (554,2 ming.so`m) va Sayxunobod tumanida (607,0 ming so’m) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming. so`m | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **1755,1** | **106,9** |
| Guliston sh. | 6698,9 | 117,0 |
| Shirin sh | 1092,0 | 100,7 |
| Yangiyer sh | 3042,2 | 101,5 |
| tumanlar: | | |
| Boyovut | 560,2 | 98,4 |
| Guliston | 753,1 | 101,9 |
| Mirzaobod | 1761,0 | 102,3 |
| Oqoltin | 1381,5 | 101,3 |
| Sardoba | 927,3 | 102,1 |
| Sayxunobod | 607,0 | 100,2 |
| Sirdaryo | 1848,4 | 101,5 |
| Xovos | 554,2 | 99,5 |

Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,8 %ni tashkil etib, 25,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

## SIRDARYO VILOYATINING
## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*(2019 yil yanvar-iyun oylari)*

Yanvar-iyun oylari viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 734,4 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,6 %ga tushdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko`ra, 447,0 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 60,9 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer shahrida (100,0 %), Shirin shahrida (99,6 %) va Sirdaryo tumanida ( 87,5 %) yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi,** *(%)*



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko`ra, 287,4 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 10,8 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 39,1 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,6 %), Boyovut tumanida (94,3 %) va Xovos tumanida (92,6 %) yuqori bo'lgan.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

| | **Jami** (mlrd.so`m) | **O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da** | **Yirik korxonalar** (mlrd.so`m) | **O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da** | **Kichik korxonalar** (mlrd.so`m) | **O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | 734,4 | 97,4 | 287,4 | 89,2 | 447,0 | 103,5 |
| Guliston sh. | 245,2 | 86,8 | 34,6 | 44,0 | 210,7 | 103,3 |
| Shirin sh | 0,3 | 102,0 | - | 28,7 | 0,3 | 103,2 |
| Yangiyer sh | 13,6 | 103,2 | - | - | 13,6 | 103,2 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Boyovut | 61,7 | 94,7 | 58,3 | 94,2 | 3,5 | 103,6 |
| Guliston | 17,9 | 102,6 | 11,7 | 102,8 | 6,2 | 102,4 |
| Mirzaobod | 45,8 | 114,1 | 12,2 | 154,7 | 33,6 | 104,3 |
| Oqoltin | 14,9 | 104,6 | 12,0 | 105,2 | 2,9 | 102,3 |
| Sardoba | 52,4 | 92,7 | 51,6 | 92,5 | 0,7 | 103,4 |
| Sayxunobod | 93,8 | 120,3 | 69,6 | 128,2 | 24,2 | 102,3 |
| Sirdaryo | 171,4 | 104,3 | 21,3 | 107,4 | 150,0 | 103,8 |
| Xovos | 17,4 | 78,1 | 16,1 | 76,6 | 1,3 | 104,2 |

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi,** (%)




Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (33,5 %), Sirdaryo tumanida (23,3 %), Sayhunobod tumanida (12,8 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-86-34